



HAYVONLARNING NORMAL HAYOT FAOLIYATIGA STRESSNING TA'SIRI, HAYVONLARDA RUHIY HOLAT BUZILISHLARI OQIBATLARI

To'raboyeva Diyora Ulug'bek qizi

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali talabasi*

turabayevadiyora109@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada stress atamasining chorvachilikka doir ma'nosi muhokama qilinadi. Hozirgi kunda eng katta e'tibor qaratilayotgan muammolardan biri bo'lgan stress oqibatida hayvonlarda turli o'zgarishlar bo'ladi ya'ni ularning xatti-harakatlari o'zgaradi. Ushbu maqolada esa stressdan aziyat chekayotgan hayvonlarni aniqlash va ularni davolash, qolaversa stressni oldini olish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: stressor, rezistentlik, texnologik stress, emotsional-og'rik, toliqish, obsesiv kompulsiv buzilish, tajovuzkorlik, kognitiv disfunktsiya sindromi.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение термина стресс в животноводстве. Стресс, являющийся одной из важнейших проблем на сегодняшний день, вызывает различные изменения у животных, то есть изменения в их поведении. В этой статье рассказывается о выявлении и лечении животных, страдающих от стресса, а также о том, как предотвратить стресс.

Ключевые слова: стрессор, резистентность, технологический стресс, эмоциональная боль, истощение, обсессивно-компульсивное расстройство, агрессия, синдром когнитивной дисфункции.

KIRISH

"Stress" inglizcha so'zdan olingan bo'lin zo'riqish ma'nosini anglatadi. Stress tushunchasini birinchi bo'lib G.Sele 1936-yili fanga tatbiq etgan. Stress holatini tasodifan sodir bo'ladigan noqulay ta'sirotlar (stressorlar) ga nisbatan organizmda kuzatiladigan nerv va gumoral moslashish jarayonlarining yig'indisi sifatida tushinish mumkin. Olim stress holatiga olib keluvchi omilni stressor deb, ular ta'sirida organizmda ro'y beradigan o'zgarishlarni moslashish (adaptatsiya) sindromi deb atagan. Ikki xil stressorlar mavjud: Fizik (issiq, sovuq, shikastlanish...) va psixik (qo'rquv, shovqin, O'ta xursandchilik..) Stress ham ijobiy ham salbiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun ma'lum bir stresslarsiz hayot kechirib bo'lmaydi, chunki stresslar bo'lmasligi o'lim bilan barobar degan G.Sele. Stresslar nafaqat xavfli balki organism uchun foydali ham bo'lishi ham mumkin. Ular eustress deyilib bu holat organism imkoniyatlarini ishga soladi, ma'lum bir infeksiyalar, qon yo'qotishlarga chidamlilik ortadi, yara kasalligi, allergiya va yurak kasalliklarini yengil o'tishini ta'minlaydi. Zararli stresslar (distress) ko'pgina kasalliklarni kechishini og'irlashtiradi.



S- situation

T-that

R-release

E-emergency

S- signals for

S-survival



METOD VA METODOLOGIYA

Hayvonlarning turi , zotidan qat'iy nazar stress holatida umumiy adaptatsiya sindromi kuzatiladi.Umumiy adaptatsiya sindromi uch bosqichda amalga oshadi.

- safarbarlik
- rezistentlik
- toliqish

Safarbarlik bosqichi o'rta hisobda 2 kun davom etadi.Bu vaqt mobaynida organizmdagi energiya zahirasi hisoblangan :glyukoza va glikogen ko'p miqdorda sarlanishi amalga oshadi.Simpatik vegetative tizimning faollashishi natijasida yurak urishi tezlashadi,qon tomirlar muskullarining tonusi ortadi,buyrak usti bezi po'stloq qavatidan ishlab chiqariladigan adrenalin va noadrenalinni qonga chiqarilishi kuchayadi. Qolaversa, gipofiz buyrak usti bezi po'stlog'I faollanishi natijasida adrenokortikotrop va kortikoidlar ishlab chiqarilishi kuchayadi, suv va mineral moddalar almashinuvi mo'tadillashadi.Bu vaqt mobaynida organizmning stresslarga nisbatan chidamliligi past bo'ladi.

Rezistentlik bosqichi bir hafta davom etib , bu bosqichda asab va gumoral reaksiyalar va ayrim ko'rsatkichlar mo'tadillashadi.Bunda organizmning umumiy holati qoniqarli bo'ladi , qondagi glyukoza, gipofiz,gipotalamus va buyrak usti bezi po'stloq qavati gormonlari , glikogen miqdorlari fiziologik holatiga o'tadi.Bu bosqichda organizmning stressorga chidamliligi nisbatan yuqori bo'ladi.

Toliqish bosqichi ya'ni chidamlilikning pasayishi,stressor kuchli va uzoq muddat ta'sir etgan yoki organizmning moslashish imkoniyatlari zaiflashgan paytlardagina ro'y beradi.Bu bosqichda hayvonlarda umumiy holsizlanish, mahsuldorlikning pasayishi,vazn yo'qotilishi,yurak muskullarining atrofiya va distrofiyaga uchrashi natijasida yurak- qon tomir faoliyatining buzilishi , jigar -ovqat hazm qilish sistemasi tizimidagi ba'zi a'zolarining ish faoliyati buzilishi, jumladan, markaziy asab tizimining doimiy tarzda buzilishi kuzatiladi.Og'ir hollarda esa hayvonning o'limi bilan yakunlanadi.

Transport stressda tashishning birinchi kunlari hayvonda bezovtalanish , gandarlash , ishtaha pasayishi,ba'zida yurak urishi va nafas olishi tezlashadi. Sport otlari va nasldor hayvonlar ko'z qorachig'I kengayadi , chaynash va oyoq muskullari



taranglashadi,ixtiyorsiz siydik ajralishi kuzatiladi.Qo'shimcha qilib aytish mumkinki, tana harorati ortadi, davolash ishlari olib borilmasa hayvonning o'limi bilan yakunlanadi.

Texnologik stress guruhlarga ajratish ,barvaqt bo'rdoqilash, hayvonlarni bir joyda uzoq muddat bog'lab boqish,saqlash va oziqlantirishning tez o'zgarib turishi oqibatida kelib chiqadi.

Emotsional-og'riq stress odatda qisqa vaqt davom etadi.Birinchi kunlari mahsuldorlik 10-25 % ga kamayadi,bezovtalanish, ba'zan qo'zg'alish , nafas va yurak ishi tezlashishi hamda diareya belgilari namoyon bo'ladi.Bu stress jarayonlari vaqtdan 7-10 kun o'tgach hayvon sog'aya boshlaydi.



TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Stress tufayli immunt sistemasi zaiflashadi , turli xil kasalliklar paydo bo'ladi.Misol uchun, qo'rquv natijasida sog'in sigirlarda mastit yuzaga kelgan.Stress natijasida sut bezlarining yuqumli kasalliklarga sezuvchanligi ortadi.Umumiy tashkiliy xo'jalik tadbirlari bilan bir qatorda organism rezistentligini oshiruvchi va asab tizimi zo'riqishiga qarshi ta'sir etuvchi preparatlar qo'llaniladi. Neyroleptik preparatlardan aminazin va stressnil qo'llaniladi.Aminazin 1 kg tana vazniga 0.5-2 ml miqdorda muskul orasiga va og'iz orqali yuborilsa preparat miqdori 2-2.5 marta ortadi.Transport stressda ko'p energiya yo'qotilishini hisobga olgan holda buzoqlarga 2.5g/kg miqdorda glukoza eritmasini ichirish hamda A , D₂ ,E vitaminlari berish tavsiya etiladi.Stress belgilari paydo bo'lganda hayvonlarga dam beriladi va ular suv bilan ta'minlanadi.Vena qon tomiri orqali CaCl₂, MgSO₄ eritmalari va kuchli qo'zg'alish kuzatilganda tinchlantiruvchi vositalar (xloralgidrat , dimedrol , valerian nastoykasi) , yurak yetishmovchiligi paytida glyukoza, kofein , kordiamin, lobelin ishlatiladi.otlarda o'pka shishi qayd etilganda ulardan 2-3 l miqdorida qon oqizilib yuboriladi va o'rniga 0.3-0.5 ml/kg miqdorida 10 %li CaCl₂ eritmasi yuboriladi. Hayvonlarda bezovtalanishni kamaytirish uchun qo'llaniladigan preparatlar va ishlatilish miqdori:

Preparatlar nomi	Qo'llanilishi	Qoramolga yuboriladigan miqdor(doza- mg/kg)	Cho'chqalarga yuboriladigan miqdor (doza- mg/kg)
Aminazin	Ozuqa bilan birga	0.7-1	0.25-0.5



Stressnil	Ozuqa bilan birga	1.0-1.5	0.5-1
Fenozepam	Suv yoki ozuqa bilan birga	0.15-0.3	0.15-0.3
Fenibut	Suv yoki ozuqa bilan birga	5-10	5-10

Adaptogen vositalar sifatida texnologik jarayonlarni boshlashdan 7-10 kun oldin va tadbir o'tkazilgandan keyin 7-15 kun keyin og'iz orqali (ozuqa yoki suv bilan) fumar kislotasi (qoramol va chochqalarga 5-10 mg/kg), yantar kislotasi (cho'chqalarga 20-40 mg/kg dozadan har kuni) beriladi. Stress omillarning ta'sirini yo'qotish va hayvonlarni to'liq xarakatsizlantirish maqsadida muskul orasiga 0.25-0.5-1.0 ml/100 kg miqdorida 2 % li xilozin yuboriladi. Hayvonlar tashishdan oldin 2-3 kun davomida bir joyda boqilib, ularga ratsionga qo'shimcha ravishda 30-50 g MgSO₄ tuzi beriladi. Tug'ishiga yaqin qolgan hayvonlarni havo issiq paytlarda uzoq masofaga tashish tavsiya etilmaydi.

Biz ruhiy kasalliklar faqat insonlarga xos deb o'ylaymiz, gap shundaki hayvonlar ham ruhiy kasalliklardan aziyat chekishadi. Veterinariya psixiatriyasi esa bu xatti-harakatlar yordamida hayvonlarning ruhiy kasalliklarini davolashga mas'ul bo'lgan fan hisoblanadi. Veterinariyaning bu sohasi hozirda ommalashib bormoqda, sababi



shundaki ko'p yillar mobaynida kuzatishlar orqali hayvonlarning ruhiy kasalliklari o'rganildi va insonlarnikiga o'xshash psixologik kasalliklarga chalinishi o'rgansilgan. Ammo veterinariya psixiatriyasi mutaxassislari hayvonlardagi bu holatlarni insonlardagi kabi o'rganmaslik kerakligini ta'kidlashadi. Chunki insonlar ruhiy kasalliklari aql va ong va boshqa omillarga

tayanib o'rganiladi. Boshqacha qilib aytganda, ayniqsa sut emizuvchilar ya'ni ularning xulq-atvorida murakkab his tuyg'ular mavjud bo'lib ular ruhiy kasalliklarning rivojlanishiga nisbatan moyilroqdir. Ularning hayot tarzidagi o'zgarishlar yoki shikastlanish, aziyat chekish hayvonlarning xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Endi esa ba'zi bir holatlarni ko'rib chiqamiz:

1. Itlarda egasidan ajralishi oqibatida paydo bo'ladigan ruhiy holat

Itlarda ansikyetenini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Itlar o'z egalariga nisbatan qaramlikni rivojlantiradilar, buning natijasida egasidan ajralgan hayvonlarda juda katta bezovtalik kuzatiladi. Egasidan ajralish jarayonida hayvonlarda titroq, asabiylik, ishonsizlik, tajovuzkorlikni keltirib chiqaradi bu alomatlarini doimiy





tanasini qichish orqali namoyon qiladi. Odatda uy hayvonlari atrof-muhitga o'ta sezgir hisoblanadi, shuning uchun stressga ko'p omillar sabab bo'lishi mumkin, buni esa veterinariya klinikasidan davolash lozim.

2. Shimpanzelarda ruhiy tushkunlik Depressiyani shimpanzelarda kuzatish mumkin. Primatlarga ancha yuqori aql-idrok berilishi oqibatida ular murakkab xulq-atvorlar rivojlangan, qolaversa ular qarindoshlariga nisbatan

mehr-muhabbatni his eta oladilar. Shu sababli ona shimpanzening o'limi boshqalarga katta ruhiy zarba bo'ladi. Buning oqibatida bola shimpanze tez-tez guruhdan chiqib ketadi, hech qanday faoliyatni amalga oshirmaydi, xattoki oziqlanmasligi mumkin. Buning natijasida esa jiddiy va xavfli kasalliklar paydo bo'ladi.

3. Otlarning plastik qoplarga fobiyasi

Turli xil fobiyalar mavjud, ular psixologik va jismoniy bezovtalikka sabab bo'ladi. Hayvonlar ham har xil narsalardan fobiyasi mavjud, mantiqsiz qo'rquvi bor. Bunga misol qilib otning polietilen paketlarga fobiyasi borligini aytishimiz mumkin. Fobiya sifatida otlar nega polietilen paketdan qo'rqishini bila olmaymiz, ular shunchaki shamolda harakatlanadigan plastmassadan yasalgan narsalardan qo'rqishadi xolos.



4. Sirk hayvonlarida jarohatdan keying ruhiy holat

Shikastlanishdan keying stress shikastlanish, juda kuchli hissiy shokni o'z ichiga oladi. Sirk hayvonlarida doimiy emotsional zo'riqishlar, mashg'ulot paytidagi qiynoqlar, har xil shovqinli, gavjum shoular oqibatida xulq-atvorida o'zgarishlar namoyon bo'ladi jumladan ular shikastlansa ular qattiq stress holati kuzatiladi. Bu holatlar laboratoriya hayvonlarida ham amalga oshadi.

5. Qafasdagi qushlarning obsesif kompulsiv buzilishi

Obsesif-kompulsiv buzuqlik-OKB bu havotirlanish oqibatida paydo bo'ladi va unda hayvonlar tomonidan bir xil xatti-harakat takroran bajariladi, qolaversa hayvonlar havotirni kamaytiradi deb doimo tinimsiz harakatda bo'lishadi. Buni biz asosan qafasdagi qushlarda ko'rishimiz mumkin. Erkin uchadigan qush birdan qafasga solinganda ucha olmaslik qushda katta havotirni keltirib chiqaradi va ular tinimsiz o'zlarini qafasga ura boshlaydi xatto oziqlanmay qo'yishi ham mumkin.



6. Hayvonot bog'laridagi hayvonlardagi ruhiy holat

Yovvoyi tabiatda erkin yashashga moslashgan hayvonlar to'satdan qafasga tushib qolganda ular erkin harakatlana olmasliklari tufayli stress paydo bo'ladi va ularni sog'lig'iga jiddiy xavf tug'diradi. Buning natijasida ular o'zlariga zarar yetkaza boshlaydilar.

7. Kexsa itlarda kognitiv disfunktsiya sindromi

Bu sindrom uy hayvonlarida juda keng tarqalgan. Odatda itlar qarilikka yetganda ularda g'ayrioddiy harakatlar kuzatiladi. Kognitiv disfunktsiya sindromiga uchragan itlar maqsadsiz yuradi, ma'lum bir tartiblarni unutadi va tajovuzkor bo'lib qoladi, xattoki egasini ham tan olmay qoladi.



XULOSA

Hayvonlar ham tirik organizmdir ularga to'g'ri muomila qilishimiz lozim, bizning noo'rin xatti-harakatlarimiz qolaversa hayvonlarni parvarishlashda bee'tiborsizligimiz kabi xatolarimiz hayvonlarda stress paydo bo'lishiga sababchi bo'lib qolmoqda. Beixtiyor holda hayvonlar o'z egalariga bog'lanib qoladi va biror sabab orqali egalaridan ajralishlari esa hayvonlarga katta ruhiy zarba bo'ladi. Muntazam ravishda stresslar esa hayvonlar immune sistemasiga ta'sir etadi, kasalliklarning esa og'ir shaklda o'tishiga sababchi bo'ladi. Men shunday xulosaga keldim hayvonlarni stressga duchor bo'lishiga inson omili ham ta'sir etar ekan, biz tirik jonzotlarni bunday xavf ostiga qo'ymasligimiz lozim, to'g'ri olimlar aytganidek stresssiz hayot bo'lmaydi ammo me'yorida bo'lishi kerak buning uchun esa har bir inson hayvon bilan muomila qilishni bilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. "Itlar va mushuklarning xulq-atvor belgilari va nevrologik kasalliklari" Elenora A., Karlo C., Anjelo G., Chiara M. Mathews journal of veterinary science-2016
2. "Hayvonlar kasalliklari" -ma'lumotnoma B. Bakirov Samarqand- 2019
3. "Nima uchun psixologiya veterinariya tibbiyotida muhim" Siess S., Marziliano A., Sarma EA., Sikorski L.Ea. -2015
4. "Odamlar va hayvonlar o'rtasidagi munosabatlar psixologiyasi" Amiot CE, Bastian B. 2014
5. "Hayvonlar stressi nima va u qanday o'lchanadi?" G H Stott, J. Anim Sci
6. Internet sayti: <https://biosfera.uz/ensiklopediya/stress/>